

JARGON VA ARGOLAR NADABIY QATLAMGA DOIR BIRLIKLAR SIFATIDA

Farrux Botirboyev

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada noadabiy qatlamga doir so‘zlar – jargon va argoning o‘ziga xos xususiyatlari, bu borada olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, shuningdek, chiqarilgan shaxsiy fikr-mulohazalar keltirilgan. Mazkur ikkala lingvistik birlikning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari ochilgan.

Kalit so‘zlar: jargon, argo, noadabiy qatlam, dialekt, kent.

Bugungi kunda insonlar orasida muloqotning yangidan-yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Til insonlar orasidagi asosiy muloqot vositasi ekanligi bu borada xarakterlidir. Tilni inson omili asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan sanaladi. Uzoq yillar davomida til bir tuzilish sifatida tadqiq etilgan bo‘lsa, so‘ngi yillarda antropotsentrik nuqtayi nazardan amalga oshirilayotgan ishlar ham kundan-kunda ortmoqda.¹ Noadabiy qatlamga doir so‘zlar ham, bevosita insonning milliy-madaniy qarashlari, nutqiy kompetensiyalariga bog‘liqligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda qiziqishlari, bajaradigan mashg‘ulotlari bir-biriga o‘xshash bo‘lgan, yosh nuqtayi nazardan ham tenglikni hosil qiladigan tor doiradagi ijtimoiy guruhlar, to‘dalar, ma‘lum kasb yoki faoliyat egalari o‘ziga xos xohish-istaklaridan kelib chiqib nutq jarayonida doimiy so‘zlardan ko‘ra alohida so‘z va iboralar qo‘llashni ma‘qul ko‘radilar. Bunday so‘zlar jargonizmlar deyiladi. Jargonlarning asosiy xususiyati shundaki, ularning paydo bo‘lish tarixi turlicha, buning sababi ularning yaratuvchilari turli-tuman nutq egalari. Jargonlar tilda vaqtinchalik bo‘lishi ham, vaqti kelib adabiy tilga singib ketishi ham mumkin. Masalan, “Tanka” jargonizmi, dastlab, yuqori mansabdagi tanish-bilish ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib har qanday qo‘llab-quvvatlovchi kishiga nisbatan, ayniqsa, talabalar nutqida semester bahosini yopib beradigan “rahnamo”ga nisbatan qo‘llaniladi. Jargonning xususiyatiga doir tilshunoslar tomonidan bir qancha ta‘riflar beriladi. Masalan, H.Jamolxonov jargon hamda argolar deyarli bir ma‘zmuniga ega ekanligini ta‘kidlab, quyidagicha ta‘rif beradi: “*Jargon va argolar — ma‘lum ijtimoiy guruhlariga, masalan, o‘g‘rilarga,*

¹ Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02_07-06

sportchilarga yoki talabalarga xizmat qiladigan yasama til. Bunday «til» elementlari (jargonizm va argotizmlar) adabiy tilda ishlatilmaydi". Bundan tashqari, ularning farqlariga to'xtalib, shunday yozadi: *argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotarlilar, poraxo'rlar va boshqalarning «yasama tili»dir. Shuning uchun argo va jargonlar ijtimoiy dialektlar deb ham yuritiladi. Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida yakan («pul»), ichuvchilar orasida novcha («araq»), qizil («vino») kabi. Jargonizmlarda yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, talabalar jargonida: dum-«topshirilmagan imtihon», «qarz»; jonli so'zlashuvda: yo'r'ga-«yengil tabiatli», «buzuq» va b.lar²*

Sh.Shoaabdurahmonov va M.Asqarova(1980) va boshqalar jargonni "sinfiy ayirmalikni ko'rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli bo'lgan so'z va iboralar. Jargon o'zbek tilining o'z so'zlaridan, ba'zan boshqa (arab va tojik) tillardan olinib ko'zlangan so'zlardir"³deb ta'rif berganlar. Tilshunos olim M.Mirtojiyev jargon va argoga alohida to'xtalib, quyidagicha yozadi: "Jargon jamoadagi tabaqalanish bo'yicha o'z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo'llanadigan terminlardir. Masalan, aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo'ja, janob, hazrati oliy kabi terminlarni ko'rsatish mumkin"; "Argo ma'lum soha vakillaridan qo'llanilib boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o'g'rilar argosida pulni loy, narsasini o'g'irlatgan odamni harf va h.k."⁴.

Jargon atamasi O.S.Axmanovning lug'atida tilni ajratish maqsadida alohida ijtimoiy guruh tomonidan (odatda og'zaki muloqotda) ba'zan kriptolalik maqsadlarda qo'llaniladigan til birligi sifatida ifodalangan.⁵.

Ba'zi ingliz va Amerika lug'atlarida keltirilgan jargon atamasining ta'riflari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Amerika lug'atlarida jargon atamasiga quyidagicha qaraladi:

- 1) ahamiyatsiz, bema'ni yoki ma'nosiz bayonot; tushunarsiz nutq;
- 2) aralash til yoki dialekt; Pidgin;

² H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. / Darslik. – Toshkent: "Talqin" 2005. – 260 b. 202-b.

³ Shoabdurahmonov. Sh., Asqarova. M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.:O'qituvchi, 1980. 446 b. -134-b.

⁴ Mirtojiyev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi.O'quv qo'llanma.- T.: O'zMU,2000.-B.54-58.

⁵ Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская Энциклопедия, 1969. 608 с. -С. 148.

3) ixtisoslashgan yoki texnik savdo tili, kasb, sinf yoki sheriklik; kent.⁶

Demak, Jargonlar – bu boshqalarga tushunarsiz, yashirin ma’noga ega bo‘lgan ma’lum ijtimoiy yoki qiziqish guruhlari tomonidan qo‘llaniladigan so‘zlar. Ingliz tilidan tarjima qilingan “jargon” atamasining o‘zi quyidagilarni anglatadi:

- Adabiy tildan farqli ravishda ijtimoiy yoki kasbiy jihatdan ajratilgan guruhning nutqi;

- Adabiy til me’yoriga to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlashuv nutqining varianti (shu jumladan, ushbu nutqning ifodali rangli elementlari).⁷

Bizningcha, jargon – bu so‘zlashuv uslubida faol qo‘llaniladigan, kommunikatorlarning dunyoqarashi, professiyasi, nutqiy madaniyatidan kelib chiqib biror bir predmet yoki holatni o‘ziga qulay usulda ifodlash shakli. Hozirgi yoshlar o‘rtasida urfga aylanayotgan va kundalik hayotda iste’molga kirib kelgan „ok“, “uspet”, “prezentatsiya”, “starosta” va shu kabi so‘zlar qisman talaba yoshlar o‘rtasida urf bo‘ldi. Bu so‘zlarning asl ma’nosini bilmasak-da, muloqot jarayoniga olib kirmoqdamiz.⁸ Jargonlar paydo bo‘lgandan so‘ng ma’lum bir muddat iste’molda saqlanishi ham, qabul qilinmasligi ham mumkin. Shunday jargonizmlar borki, uzoq yillardan buyon tilda mavjud, ularning ayrimlari adabiy tilga ham singib ketgan holatlar uchraydi.

Argo ko‘plab adabiyotlarda jargonning bir turi deb qaraladigan, biror toifa egalarigagina xos, yashirin ma’no ifodalovchi, boshqalar uchun maxfiy bo‘lgan birlikdir. Mazkur atamaga o‘zbek tilining izohli lug‘atida fransuzcha argot (jargon) so‘zidan olinib, yasama til, biror ijtimoiy guruh, toifaning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklardan iborat tili ekanligi izohlangan.⁹

Har qaysi davrda maxsus so‘zlashuv usullaridan foydalanilgan. Boshqalardan sir tutgan ifodalarni keltiris uchun boshqa-boshqa so‘zlarda foydalanish ham uzoq zamonlardan beri mavjud. Argoning asosiy xususiyati ham mentallik bilan bevosita bog‘liq ekanligida. Argoni madaniyatning mahsuli sifatida talqin etgan olim uni madaniyat fenomeni sifatida bir qator: yaqinlik va ochiqlik, ekspressivlik va

⁶ Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга – основного компонента английского просторечия. Вологда: Вологодский гос. пед. ин-т, 1971. 104 с.

⁷ Понятие «сленг», «жаргон», «социолект», «арго» как предмет научной рефлексии в современной лингвистике. Место сленга в школьной среде | Образовательная социальная сеть (nsportal.ru)

⁸ Anorqulova Ozoda. Yoshlar o‘rtasidagi noadabiy qatlamga doir so‘zlar”. A Ozoda-SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE..., 2023 Related articles.

⁹ ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. БИРИНЧИ ЖИЛД, 112-бет.

barqarorlik kabi qarama-qarshi tendentsiyalarni birlashtirgan murakkab shakllanishdir deya ta'riflaydi.¹⁰

Argolar so'zlashuv uslubi bilan bog'liq bo'lib, noodatiy nuqt birligi sanaladi, u doimiy o'zgaruvchan bo'lib, ijtimoiy, milliy-madaniy hamda yosh xususiyatlariga xosdir. Argoni tilshunoslikning bir qismi sifatida taqdiq etish esa XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladi, argo so'zlarni nafaqat tilshunoslar, balki sotsiologik, psixologik, lingvokulturologik jihatdan ham taqdiq etish mumkin bo'ladi. Argoga bo'lgan munosabat har doim ham ijobiy bo'lmagan. Ayrim taqdiqotlarda ularga nisbatan "noan'anaviy til, kishilar nutqidagi kamchilik, shaxslarning nutq faoliyatidagi saviyasizlik, axloqiy pastlik"¹¹ sifatida qaraladi.

Argoning **kent** deb ataladigan turi ham mavjud bo'lib, u asosan o'g'rilar, tilanchilar va lo'lilar tomonidan aloqa mavzusini yashirish uchun ishlatiladigan maxfiy tildir. Kent so'zining o'zi ham so'nggi yillarda, ayniqsa yoshlar orasida keng qo'llaniladigan atamaga aylanib qoldi. U nomaqbul yoki modaga mos kelmaydigan kishilarni atash uchun qo'llaniladigan jargon sanaladi. Bu atama Angliyada kent deb nomlangan kichik shaharcha nomidan kelib chiqqan bo'lib, u shahar zerikarli va qiziq emasligi bilan mashhur bo'lgan. Kent deb nomlanish haqorat bo'lib, bunday kishilar zerikarli, g'ayrioddiy va uslubi yo'qligini anglatadi. Ko'pincha u so'nggi modalar, musiqa yoki zamon bilan hamnafas bo'lmagan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ushbu atama so'nggi yillarda, xususan, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalarida mashhurlikka erishdi. Ko'pgina yoshlar bu atamani boshqalarni masxara qilish yoki masxara qilish uchun ishlatishadi. Biroq, bu atamaning ishlatilishi ham munozaralarga sabab bo'ldi, ba'zilar buni kamsituvchi va haqoratli deb ta'kidladilar. Uning salbiy ma'nolariga qaramay, ba'zi odamlar bu atamani qabul qilishdi va hatto o'zlarini tasvirlash uchun ishlatishdi. Ular buni asosiy madaniyatni rad etish va o'ziga xos uslub va shaxsiyatni qabul qilish usuli deb bilishadi. Umuman olganda, Kent atamasi bo'linadigan va munozarali jargon atamasi bo'lib, u ko'pincha noqulay yoki moda bo'lmagan deb hisoblanganlarni haqorat qilish yoki masxara qilish uchun ishlatiladi. Ba'zilar buni kulgili yoki zararsiz deb bilishsa, boshqalari buni kamsituvchi va haqoratli deb bilishadi.¹² Bugungi kunda yoshlar o'zlari ishlatayotgan so'zlarining asl mohiyati nima ekanligi, so'zning kelib chiqishi qanday holat bilan

¹⁰ В.С.Елистратов. **Арго и культура (на материале современного московского арго).** - Москва 1993. -с.6.

¹¹ Ahmedova M. Approaches to the specificity of words - slang, argo, jargon. Full-Paper-APPROACHES-TO-THE-SPECIFICITY-OF-WORDS-SLANG-ARGO-JARGON.pdf (idpublications.org)

¹² Что означает слово «кент» на блатном жаргоне | Тюрюга | Дзен (dzen.ru)

bog'liqligi haqida o'ylashmayd, shunchaki tiliga, ifodasiga qulay bo'lgan so'zlarni ikkilanmasdan nutqiy faoliyatida qo'llayverishadi. Mana shunday so'zlar vaqti kelib kundalik muloqot tiliga ham ko'chib ketadi. Bu holatni aksariyat tilshunoslar qoralaydi.

Shunday qilib, argo sotsiolekning bir turi sifatida kishilar muloqot nutqida foydalaniladigan birlik sanaladi. "Argotizm ham asli jargonizmning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuq, qo'li egri shaxslar orasida shu guruhning o'zigagina tushunarli ma'noda ishlatiladigan leksemalar yig'indisidan iborat"¹³. O'zbek tilida *loy-pul, xit-xavf* ma'nosida; rus tilida *Фраер-tajribasiz o'g'ri, qurbon, ho'llash (мочить)-urish* ma'nolarida, ingliz tilida esa *lenza -suv, arto – non, bisto – ruhoniy* ma'nosini anglatadi.

Fikrimizcha, argo – bu yillar davomida turli kontekstlarda ishlatilgan jargon atamasi. U, dastlab, yoshlar tomonidan ajoyib, qiziqarli hamda zamonaviy narsalarni ifodalash uchun ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik maxsus guruhlarga xos bo'lgan sirli, murakkablashgan so'zlashuv usulidir. Ayrim manbalarda aytilishicha, Argo ayrim doiralarda gilyohvand moddalarni iste'mol qilish yoki o'g'irlik kabi noqonuniy harakatlar uchun kod so'zi sifatida ishlatila boshlanganligi aytiladi. O'ylashimizcha, Argodan foydalanish, ayniqsa, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan shaharlarda keng tarqalgan, sababi argotizmlarning aksariyati jinoyat olami, o'g'irlik va talonchilik bilan bog'liq bo'lgan so'zlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-07-06>
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. / Darslik. – Toshkent: "Talqin" 2005. – 260 b. 202-b.
3. Shoabdurahmonov. Sh., Asqarova. M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:O'qituvchi, 1980. 446 b. -134-b.
4. Mirtojiev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi.O'quv qo'llanma.-T.: O'zMU,2000.-B.54-58.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская Энциклопедия, 1969. 608 с. -С. 148.
6. Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга – основного компонента английского просторечия. Вологда: Вологодский гос. пед. ин-т, 1971. 104 с.
7. Понятие «сленг», «жаргон», «социолект», «арго» как предмет научной рефлексии в современной лингвистике. Место сленга в школьной среде | Образовательная социальная сеть (nsportal.ru)
8. Yoshlar o'rtasidagi noadabiy qatlamga doir so'zlar". A Ozoda- SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE..., 2023 Related articles.
9. В.С.Елистратов. Арго и культура (на материале современного московского арго). - Москва 1993. - с.6.
10. Ahmedova M. Approaches to the specificity of words - slang, argo, jargon. Full-Paper-APPROACHES-TO-THE-SPECIFICITY-OF-WORDS-SLANG-ARGO-JARGON.pdf (idpublications.org)
11. Что означает слово «кент» на блатном жаргоне | Тюряга | Дзен (dzen.ru)
12. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – Toshkent: "Universitet", 2006. – 476 b. 91-bet.

¹³ Shavkat Rahmatullayev HOZIRGI ADABIY O'ZBEK TILI (darslik) Toshkent "Universitet" 2006. 476 b. 91-bet.